

## ULUG'BEK HAMDAM ASARLARIDA DEYKSISNING PRAGMATIK XUSUSIYATLARI

*Turobova Nargiza Arolovna*

*Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti  
universiteti tayanch doktoranti*

### ПРАГМАТИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ДЕЙКСИСА В ТВОРЧЕСТВЕ УЛУГБЕКА ХАМДАМА

*Туробова Наргиза Ароловна*

*Базовый докторант Ташкентского государственного  
университета узбекского языка и литературы имени  
Алишера Навои*

### PRAGMATIC FEATURES OF DEIXIS IN THE WORKS OF ULUGHBEK HAMDAM

*Turobova Nargiza Arolovna*

*Base doctoral student of Tashkent State University of Uzbek  
language and Literature named after Alisher Navoi*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada zamonaviy o'zbek nasrida deyksis vositalarining pragmalingvistik jihatlari o'r ganilgan. Deyksis hodisasining asosiy turlari — shaxs, makon, zamon, diskurs va ijtimoiy deyksislar yozuvchi Ulug'bek Hamdam asarlari misolida tahlil qilinib, ularning badiiy asarda tutgan o'rni yoritilgan. Shuningdek, misollarni tahlil qilishda deyksis birliklarining kommunikativ vazifalari, ya'ni nutq ishtirokchilarini aniqlash, zamonga ishora, shaxsning emotsiyal holati va matnni shakllantirishdagi roli ko'rib chiqiladi.

**Kalit so'zlar:** deyksis, pragmatika, shaxs olmoshlari, makon va zamon ko'rsatkichlari, kommunikatsiya, kontekst, emotsiyal baho, ishora ko'rsatgichlari.

**Аннотация.** В статье изучаются прагмалингвистические аспекты дейксисных приемов в современной узбекской прозе. На примере творчества писателя Улугбека Хамдама анализируются основные типы явлений дейкса в языкоznании: личность, пространство, время, дискурс, социальный дейкссис, а также освещается их роль в художественном произведении. При анализе примеров также рассматриваются коммуникативные функции единиц дейкса, а именно их роль в идентификации участников речи, указании времени, эмоциональной оценке человека, формировании контекста.

**Ключевые слова:** дейкссис, прагматика, личные местоимения, показатели пространства и времени, коммуникация, контекст, эмоциональная оценка, указательные местоимения.

**Abstract.** This article studies the pragmatic aspects of deixis in modern Uzbek prose. The main types of deixis in linguistics - person, place, time, discourse and social deixis - are analyzed using the works of the writer Ulugbek Hamdam as an example, and their role in the work of art is highlighted. Also, the analysis of the examples considers the communicative functions of deixis units, namely, the identification of speech participants, reference to time, emotional assessment of the person and their role in the formation of the context.

**Keywords:** deixis, pragmatics, personal pronouns, place and time indicators, communication, context, emotional assessment, deictic indicators.



[nargizaralovna@gmail.com](mailto:nargizaralovna@gmail.com),

+998945139605

[https://orcid.org/0009-0005-](https://orcid.org/0009-0005-6648-6407)

6648-6407

**KIRISH.** Til – insoniyat tafakkuri, madaniyati va ijtimoiy hayotining eng muhim omili bo‘lib, uning vositasida axborot almashinuvi (kommunikatsiya) amalga oshadi. Tilshunoslikda so‘nngi yillarda nutq faoliyatini muloqot jarayonida o‘rganishga keng e’tibor qaratilmoqda. Bu o‘z navbatida antroposentrik tilshunoslikning yangi yonalishi bo‘lgan pragmalingvistikating shakllanishiga olib keldi. Pragmalingvistika – bu so‘zlovchining ma’lum bir maqsadlarga erishish uchun suhbatdoshiga ta’sir qilishdir ya’ni aniq muloqot sharoitida tildan qanday foydalanishini o‘rganadigan fan. Nutqiy faoliyatda kimga, nimani, qayerda, qachon, qanday yetkazishidir.

Zamonaviy o‘zbek adabiyotida modernizm, falsafiy tafakkur va ijtimoiy ongning yangi shakllari o‘z ifodasini topgan. Bu borada yozuvchi Ulug‘bek Hamdamning adabiy ijodi alohida e’tiborga loyiqidir. Uning asarlarida inson psixologiyasi, ijtimoiy munosabatlar, qahramonlarning ichki kechinmalari chuqur ochib beriladi. Yozuvchining asarlari muloqotga boy bo‘lib, obrazlar o‘rtasidagi nutqiy munosabatlar orqali ko‘plab pragmalingvistik vositalar yuzaga chiqadi.

Ma’lumki, tilshunoslikda nutq jarayonida matn (kontekst) bilan bog‘liq bo‘lgan birliklarni tahlil qilish pragmatikaning asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi. Bu jarayonda deyksis hodisasi asosiy o‘rinda turadi. Deyksis — bu matnga asoslangan ishoraviy til hodisasidir [1]. U til va nutqning kontekstual xususiyatlarini o‘rganishda muhim vosita hisoblanadi.

Badiiy matnni pragmatik tahlil qilishda (natijalarimizga ko‘ra), Ulug‘bek Hamdam asarlarida deyksis keng qo‘llanilgan va badiiy matnda muhim kommunikativ vazifa bajarganini kuzatdik. Shuningdek, deyksis vositasining turlari, ularning til va nutqdagi ifodalash shakllari matnda til birliklarning pragmatikasini ochib beradi.

**NATIJALAR (РЕЗУЛЬТАТЫ / RESULTS).** Matnda yuzaga chiqqan har qanday muloqot lisoniy birliklarning shaxsga, makonga, emotsiyonal holatga va suhbatdoshlarning ijtimoiy mavqeyiga oid pragmatik axborotni o‘z ichiga oladi. Negaki har qanday muloqot hodisasi ma’lum sharoitda kommunikativ vaziyatni amalga oshiradi. Bu o‘z navbatida suhbatdosh axborotni qabul qilish jarayonida uning qachon, qayerda va qanday

maqsadda amalga oshayotganini tushunishga harakat qiladi. Bu kabi jarayonlarda har bir nutq ishtirokchisi voqelikda yuz berayotgan hodisani o‘zicha tahlil qiladi va muloqot jarayonini zamon, vaziyat ichida tahlil qilish orqali unga lisoniy shakl beradi. Demak, nutqiy faoliyatda doimo lisoniy omil voqelik bilan aloqador bo‘lgan holda nutq vaziyatiga shaxsiy munosabat bildirish ehtiyojini tug‘diradi. Bunday nutqiy faoliyat deyktik vositalar orqali amalga oshiriladi.

“Deyksis” terminining ma’nosи yunoncha (“deixix”) “ko‘rsatish”, “ishora” bo‘lib, ilmiy adabiyotlarda “voqelikka ishora, ko‘rsatish” ma’nolarini ham anglatadi va til birliklarning ishora qilish belgisini aks ettirishga xizmat qiladi. Ko‘rsatish, ishora vazifasini bajaruvchi birliklar deyktik iboralar yoki “indikatorlar” atamasi bilan ham yuritiladi. Bunday turdagи iboralarni muloqot samaradorligini ta’minlovchi ekspressiv, emotiv, baholovchi componentlar deb atash mumkin [5]. “Deyksis” so‘zi ilk bor qadimgi yunon faylasuflari asarlarida qo‘llangan. Deyksis tushunchasi antik davrlardan buyon ma’lum bo‘lsa-da, uning olmoshga xos bosh xususiyat ekanligi tilshunoslarning diqqat-e’tiborini tortgan. Tilshunoslikda deyksis hodisasi dastlab nemis olimi K.Brugmann tomonidan o‘rganilgan [7]. Deyksis nazariyasining ishlab chiqilishida K.Byuler-ning ham xizmatlari katta. U til nazariyasiga oid tadqiqotida deyksisning mohiyati, turlari, deyktik birliklarning vazifalari xususida ma’lumot bergen [2]. Tilda deyksisni hosil qiluvchi vositalarga dastlab ko‘rsatish va kishilik olmoshlari, ravish vazifasida qo‘llanuvchi olmoshlar kiritilgan bo‘lsa, keyinchalik tilning boshqa birliklariga ham deyktik xususiyatning xosligi aniqlandi. Bu boradagi tadqiqotlarda ayrim leksik hamda grammatic birliklarning ham deyktik vazifa bajarishi ko‘rsatildi [7]. Qator tadqiqotlarda nominativ birliklar verbal muloqot jarayonida bajaradigan vazifalariga ko‘ra deyktik nomlashning o‘ziga xos turi sifatida e’tirof etildi. Deyktik birlikning nominativ birlikdan farqi shundaki, u anglatgan ma’no nisbatan noaniq bo‘lib, faqat muayyan matnda reallashadi [4]. Deyktik iboralar S.Rahimov (1989) va Sh.Safarovlarning (2008) tadqiqotlarida har tomonlama keng o‘rganilgan.

Pragmatikada muloqot jarayonidagi suhbatdoshlarning o‘zaro munosabatlari deyksisining quyidagi turlari o‘rganiladi: 1) shaxs deyksisi; 2)

zamon (makon) deyksisi; 3) diskurs deyksisi (Ch.Filmor); 4) emotsiyal deyksisi, 5) ijtimoiy deyksisi (Ch.Filmor);.

### **MUHOKAMA(ОБСУЖДЕНИЕ/DISCUSSION)**

**Shaxs deyksisi.** Ulug‘bek Hamdam asarlarida shaxs deyksislari juda faol qo‘llanilganini ko‘rishimiz mumkin. Deyksisning ushbu turi nutq ishtirokchilarini (*men, sen, siz, u* va h.k.) ko‘rsatadi. Shaxs omoshlari vositasida muloqot ishtirokchilarining indentifikatsiyasi ta‘minlanadi [6]. Masalan, “Sabo va Samandar” asaridan olingan quyidagi jumlada: “*Men sizni kecha ko‘rdim. Ko‘zlaringizdagi g‘am meni o‘ylantirdi.*” Bu yerda “men” birinchi shaxs, “siz” esa ikkinchi shaxs olmoshidir. Muallif yoki qahramon o‘z fikrini bevosita boshqa ishtirokchiga yo‘naltirib, kommunikativ yaqinlik hosil qiladi. Bu pragmatik jihatdan suhbato bilan emotsiyalikni kuchaytiradi.

**Makon deyksisi.** Muloqot jarayonida uning ishtirokchilari egallagan o‘ringa ishora makon deyksisi mazmunini tashkil qiladi, voqelikning idrok qilinishi va bu idrokning lisoniy ifoda topishi ikki asosiy lisoniy – tafakkur harakatini talab qiladi: birinchidan, voqelik, ikkinchidan, uni ma’lum makonda joylashtirish talab qilinadi [5]. Makon deyksislari kontekstda o‘rin ravishlari, ko‘rsatish olmoshlari orqali ifodalanadi (*bu yerda, u yerda, shu yerda, narida* va h.k.). Masalan, “*Bu yerda jimjilik. Atrofda odam yo‘q, faqat daraxtlar shivirlaydi.*” “*Bu yerda*” deyksisi muallif tasvirlayotgan joyga o‘quvchini olib kiradi. Bu vosita orqali matn ichida badiiy makon yaratiladi va o‘quvchi u bilan emotsiyal aloqada bo‘ladi.

**Zamon deyksisi.** Matnda tasvirlanayotgan voqealari bayoni va ular haqida axborot uzatishda uning kechish davrga, paytiga ishora qiluvchi iboralar qo‘llaniladi. Bunday ishora vazifasini zamon (vaqt) deyksisi vositalari bajaradi. Deyksisning bu turi ish-harakatning biror bir nutqiy akt ijrosidan oldingi yoki keyingi vaqtiga ishora qiladi. Masalan, “*O‘sha kuni quyosh g‘ira-shira yorug‘lik taratgan, Samandar esa tog‘ etagida o‘tirgan edi.*” Bu o‘rinda “O‘sha kuni” iborasi aniq bo‘lmagan, lekin kontekst orqali ma’lum bir vaqtga ishora qilmoqda. Bu vaqt deyksisi voqeaneering sodir bo‘lgan lahzasini bildiradi va o‘quvchini xayoliy vaqtga ko‘chirishga xizmat qiladi. Zamon deyksisilar ham Ulug‘bek Hamdam asarlarida voqealar ketma-ketligini belgilashda emas, balki

vaqtning nisbiyligini, inson xotirasi va eslash bilan bog‘liq hodisani ifodalashda xizmat qiladi. “O‘sha payt”, “kecha”, “bugun” kabi birliklar ba’zida real vaqtning emas, balki qahramon ongidagi subyektiv vaqtning ifodalaydi. Bu esa matnning talqinni (interpretatsiyasini) murakkablashtiradi va ko‘p qatlamlari ma’no yaratadi. “*Kecha u bilan so‘nggi marta uchrashganimni endi angrayapman.*” Bu yerda “kecha” deyksisi grammatik jihatdan yaqin o‘tgan vaqtning bildirsa-da, real vaqtning emas, balki qahramon ongidagi xotira lahzasini ifodalayapti. Qahramon “kecha”ni bugungi tushunchalar bilan baholayapti, u uchun bu voqealari hali ham ichki ongda sodir bo‘layotgandek. Bu deyksisning psixologik zamonni ifodalashda qo‘llanayotganiga misoldir.

**Diskurs (matn) deyksisi.** Ushbu turdagideyksis matnning ma’lum bir qismiga ishora qiluvchi birliklarning qo‘llanilishda namoyon bo‘ladi. Jumladan, “har holda”, “aksincha” kabilar matnning oldingi yoki keyingi qismlariga ishora vositasidir. Bunday iboralarning deyktiklar qatoriga kiritilishining sababi ular ishtirokida tuzilgan nutqiy strukturalarning referentini matndan izlash imkoniy mavjudligidadir [6]. Masalan, (Samandar) “*Bu gap uni ancha o‘ylantirib qo‘ydi.*” “*Bu gap*” birligi matndagi oldingi bir bayonga ishora qilmoqda. Diskursiv deyksis orqali muallif matn ichidagi o‘zaro bog‘liqlikni ta‘minlaydi va o‘quvchini matnni uzuksiz (ketma-ket) o‘qishga undaydi.

**Sotsial (ijtimoiy) deyksisi.** Deyksis kategoriyasiga kiruvchi mazkur tur muayyan gap tarkibida emas, muloqot matni tarkibida muloqot ishtirokchilarning (kommunikantlarning) ijtimoiy mavqeyi qanday holatlarda aks etishimi ifodalaydi [5]. Shaxs deyksisining uch qismli ekanligini (“men”, “sen”, “u”) qayd etayotib, e’tiborni dunyoning ko‘p tillarida so‘zlovchi, adresat va uchinchi (kuzatuvchi yoki muloqot ishtirokchisi bo‘lmagan) shaxs-jamiyatda tutgan ijtimoiy mavqeyiga nisbatan nomlanishlariga e’tiborni qaratadi. Eng asosiysi, bu tillarda shaxs ijtimoiy mavqeyi maxsus lisoniy birliklar, grammatik shakllar vositasida ifodalanadi [10]. Masalan, “*Sizga bu yerlar tanish bo‘lsa kerak, janob!*” Samandar nutqidan olingan ushbu jumladagi “*Siz*” va “*janob*” birliklari orqali hurmat va ijtimoiy masofani ko‘rsatgan. Muallif bu vosita bilan ijtimoiy kontekstni, ya’ni shaxslar o‘rtasidagi rasmiy yoki masofali munosabatni ifodalaydi.

## XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ/CONCLUSION).

Deyktik vositalarining pragmatik vazifasi shundaki, ular muallif, qahramon va o‘quvchi o‘rtasidagi masofani qisqartiradi. Bu vositalarning bevosita yoki bilvosita qo‘llanilishi matnning yo‘nalishini belgilaydi, kommunikativ maqsadga xizmat qiladi va o‘quvchi e’tiborini muayyan nuqtaga yo‘naltiradi. Ulug‘bek Hamdam asarlarida tilning nafaqat estetik, pragmatik xususiyatlari ham kata ahamiyatga ega. Ayniqsa, deyktik vositalarining qo‘llanishi orqali yozuvchi o‘quvchi bilan o‘ziga xos kommunikativ aloqa o‘rnatadi. Deyktik birliklar kontekstga bog‘liq bo‘lgan tildagi ishtiroki bilan matnda kommunikatsiyaning ishoraviy vositalari sifatida namoyon bo‘ladi.

## ADABIYOTLAR

1. Арутюнова Н.Д. Дискурс и дейксис. – Москва: Наука, 1981.
2. Бюлер К. Теория языка. Репрезентативная функция языка. – М.: Прогресс, 2001. – 528 с.
3. Бондаренко О. Г. Функционально-семантическое поле дейкса в современном английском языке: Дисс. ...канд. филол. наук. – Ростов –на-Дону, 1998. – С. 170.
4. Ehlich K. Anaphora and deixis: Sane, similar or different? // Speech, Place abd action: Studies in Deixis and related topics. – Chichester itc.: Wiley, 1982. – P. 331.
5. Ko‘chiboyev A. Matn pragmatikasi. (O‘quv-uslubiy qo‘llanma) Samarqand: 2015.

